

## BADIY PSIXOLOGIZM VA INTELLEKTUAL LIRIKA SINTEZI

**Sabirova Zebo Zokirovna,**

*O'zMU, Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti  
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti v.b., (PhD),  
mustaqil tadqiqotchi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida lirik subyektning o'zini inkor etish hodisasi badiiy-psixologik va estetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. "Men emas" she'ri misolida shoirning ruhiy kechinmalari, o'zlikni anglash va begonalashuv holatlari psixologik lirika tamoyillari asosida tadqiq etiladi. Asarda takror (anafora), parallelizm va ritmik tuzilma orqali ruhiy intensivlik bosqichma-bosqich kuchayib borishi ko'rsatilgan. Maqolada shuningdek, obrazlar tizimidagi psixologik transformatsiyalar "qo'l", "yo'l", "tush", "oyna", "orzular" kabi timsollarning ichki ruhiy jarayonlarni ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Xulosa sifatida, "men"ning inkori, inson o'zligini izlash, hisni tafakkur orqali anglash, ya'ni badiiy psixologizmning yuqori bosqichi sifatida talqin qilinadi.

**Kalit so'zlar:** lirik subyekt, badiiy psixologizm, o'zini inkor etish, refleksiya, intellektual lirika, o'zlik, interorizatsiya, intrapersonal ziddiyat, ritmik takror, parallelizm, ruhiy intensivlik, obraz tizimi, introspeksiya, metafizik lirika, o'zlikni anglash.

**Abstract.** This article examines the phenomenon of the lyrical subject's self-negation in contemporary Uzbek poetry from artistic-psychological and aesthetic perspectives. Using the poem "Men emas" ("Not I") as a central example, the study analyzes the poet's emotional states, processes of self-realization, and experiences of estrangement within the framework of psychological lyricism. The poem demonstrates a gradual intensification of inner tension through repetition (anaphora), parallelism, and rhythmic structure. The article also explores psychological transformations within the system of poetic images, highlighting the symbolic role of "hand," "path," "dream," "mirror," and "visions" in expressing inner mental processes. The conclusion argues that the negation of the "I" represents a search for selfhood and the comprehension of emotion through thought embodying an advanced level of artistic psychologism.

**Keywords:** lyrical subject, artistic psychologism, self-denial, reflection, intellectual lyricism, selfhood, interiorization, intrapersonal conflict, rhythmic repetition, parallelism, emotional intensity, image system, introspection, metaphysical lyric, self-awareness.

**Аннотация.** В данной статье анализируется феномен отрицания лирического субъекта в современной узбекской поэзии с художественно-психологической и эстетической точек зрения. На материале стихотворения «Men emas» («Не я») исследуются душевные переживания поэта, процессы самопознания и состояния отчуждения в рамках психологической лирики. В произведении показано постепенное нарастание внутренней напряжённости посредством повтора (анафоры), параллелизма и ритмической структуры. В статье также раскрываются психологические трансформации в системе образов, подчёркивается символическая роль таких мотивов, как «рука», «путь», «сон», «зеркало», «видения» в выражении внутренних психических процессов. В качестве вывода утверждается, что отрицание «я» является формой поиска личности, осмысления чувства через мысль и представляет собой высшую ступень художественного психологизма.

**Ключевые слова:** лирический субъект, художественный психологизм, самонегация, рефлексия, интеллектуальная лирика, самосознание, интериоризация, внутриличностный конфликт, ритмический повтор, параллелизм, эмоциональная интенсивность, система образов, интроспекция, метафизическая лирика, поиск «я».

**Kirish.** Zamonaviy she'riyatda lirik subyektning o'zini anglash jarayoni tobora murakkablashib, o'zlik va begonalik, ichki monolog va o'zini inkor etish kabi psixologik holatlar badiiy tafakkurning markaziy masalasiga aylangan. Lirik "men" endilikda

shunchaki his-tuyg'ularni ifodalovchi emas, balki subyektiv dunyoning psixopoetik modelini yaratadigan estetik mexanizmdir. Bu jarayonda o'zini inkor etish fenomeni, ya'ni lirik subyektning o'z mavjudligini rad etish orqali ruhiy mohiyatini izohlashga urinish badiiy psixologizmning eng murakkab ko'rinishlaridan biridir. Lirik qahramon o'zligini rad qilish shaklidagi poetik struktura lirik "men"ning ichki dialogini, interiorizatsiya va intrapersonal ziddiyat jarayonlarini ochib beradi. **Lirik subyektning ichki dunyosini ochishda** interiorizatsiya she'rda tashqi voqelik yoki hodisalarni emas, balki **qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy ziddiyatlari va his-tuyg'ularini** markazga qo'yishga yordam beradi. **Shundan kelib chiqqan holda** interiorizatsiyaning bir necha vazifalarini ko'rib chiqamiz: masalan, agar she'rda tabiat manzarasi qahramonning ruhiy holati orqali tasvirlangan bo'lsa (quyosh chiqishi yoki botishi, yomg'ir yog'ishi) bu **interiorizatsiyalangan obraz** hisoblanadi, u qahramonning **ichki monologi yoki ong oqimi** orqali tashqi voqeani **psixologik nuqtayi nazardan** yoritadi. Lirik subyektning tashqi voqeani emas, balki **ichki tajribasini** o'quvchi-she'rxon bilan bo'lishishi she'rga falsafiy teranlik va subyektiv rang bag'ishlaydi. **Badiiy psixologizmni kuchaytiradi**, she'rda **psixologik realizmni** oshiradi, chunki o'quvchi-she'rxon qahramonning ruhiy jarayonlarini to'g'ridan-to'g'ri sezadi: muhabbat, alam, sog'inch kabi hissiyotlar tashqi harakatlar orqali emas, balki ichki psixologik holatlar orqali ifodalanadi.

**Adabiyotlar tahlili:** Rus olimi L.S. Vyotskiy ta'kidlashicha [9:146], interiorizatsiya **shaxsning insoniy qadriyatlarini o'zlashtirishi** orqali yuzaga keladi. She'rda bu, masalan, tarixiy yoki madaniy hodisalarni **shaxsiy ruhiy tajribaga aylantirish** orqali ko'rinadi. **Estetik va semantik qatlamlarni boyitadi**, interiorizatsiyalangan she'rlarda **tashqi voqelik va ichki dunyo bir-biriga uyg'unlashadi**, natijada:

- metaforik qatlam kuchayadi;
- obrazlarning psixologik teranligi oshadi;
- o'quvchi lirik qahramonning ruhiy jarayoniga yaqinlashadi.

Shu shaklda shoir o'z "men"ini obyektlashtiradi, ya'ni uni kuzatuvchi subyekt sifatida emas, balki tahlil qilinuvchi ruhiy hodisa sifatida tasvirlaydi. Natijada she'riy matnda reflektiv ong (L.S. Vyotskiy) [9:153], metapoetik fikrlash, ruhiy intensivlik kuchayadi va "men" o'zining ma'naviy chegaralarini yo'qota boradi. Lirik subyektning o'zini inkor etishi aslida identifikatsiya inqirozini badiiy shaklda ifoda etishdir, ya'ni shoir o'z ruhiy "men"ini boshqa obrazlarga, masalan, xayol, ko'ngil, tush, yo'l, orzu kabi ramzlarga ko'chiradi. Natijada subyektiv lirika o'z ichki energiyasini o'zini rad etish orqali yangidan hosil qiladi. Shu bois bunday poetik modelni intellektual lirikaning muhim tamoyillaridan biri sifatida talqin etish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada qiyosiy-tahliliy, germeneytik, lingvistik metodologiyadan foydalanilgan.

**Tahlillar va natijalar.** Behzod Fazliddinning "Men emas" she'rda shoir lirik "men"i orqali ifodalangan ruhiy ziddiyat va o'zlikni anglash izlanishlari ijodiy

individuallikning subyektivlik darajasi orqali namoyon bo'ladi. She'ning asosiy poetik o'qi "men emas" takrori orqali shaxsiy "men"ni inkor etish, ammo shu inkor ichida o'zini izlash, "men" va "ko'ngil" o'rtasidagi ziddiyatni ochishdir. Bu usul shaxsiy hissiyotning ichki dialog shaklida namoyon bo'lishidir. Lirik qahramon o'z "men"idan begonalashadi, ammo shu begonalik orqali o'zining ichki haqiqatini izlaydi. Bu hol subyektiv kechinmalarning o'z-o'zini inkor orqali kuchayishidir, ya'ni u "men emas" desa-da, aynan shu inkor orqali "men" yanada markaziy kuchga aylanadi.

"Men emas, xayol u – seni o'ylagan...". Bu misrada fantazmaga yuklatilgan muhabbat subyektini endi ong darajasida emas, tuyg'u va tasavvur darajasida kechayotgan holatni bildiradi.

Shoirning individualligi shunda namoyonki, u "men"ni emas, balki "ko'ngil", "xayol", "yo'l", "tush", "orzular"ni lirik markazga qo'yadi, bu esa poetik subyektini ko'p qatlamli qiladi. Lirik "men"i orqali ifodalangan ruhiy ziddiyat va o'zlikni anglash til va tasvirga yondashuv orqali ham namoyon bo'ladi. Til soddalik va ramziylik uyg'unligida badiiylovishadi. She'rda takror (anafora) va parallelizm kuchli ishlatilgan:

"Men emas..."

"Yo'llarim yo'lingdan ketmoq istadi..."

"Qo'llarim qo'lingga yetmoq istadi..."

Bu struktura orqali ichki iztirobning ritmik oqimi hosil bo'lgan. Til psixologik lirika ruhiga mos ravishda sodda, ammo chuqur ma'noga ega. Har bir satr ko'ngilning ichki intilish holatini tasvirlovaydi. Tasviriy vositalarda esa shoir metonimiya va psixologik personifikatsiyadan foydalanadi: "Qo'llarim qo'lingga yetmoq istadi", bunda jismoniy harakat emas, ruhiy ehtiyojning timsoli asklangan. "Tushlarim oynayi jahon bo'ldilar", bu yerda esa tush va "oynayi jahon"ning qo'shilishi orzu va real olam orasidagi psixologik ko'priknini ifodalovaydi. Til ohangi past, introspektiv, har bir obraz ichki rezonansga ega. Shu jihatdan shoirning uslubi subyektiv lirika uchun juda xosdir. "Ichki rezenans" M.M. Baxtin ta'biri bilan aytganda "har qanday badiiy ifoda o'zida ichki tovushni, ruhiy jarangni, muallif ovozinin rezonansini saqlovaydi", ya'ni, ichki rezonans muallif va lirik "men"ning ichki ovoz uyg'unligidir. L.S. Vyotskiy esa "san'at asarining kuchi unda uyg'ongan hislarning ichki javobida, rezonansida namoyon bo'ladi [4:107]", deydi. Bu o'quvchida yoki subyektda hislarning ichki aks-sadosi degani. Demak, she'riy hislarning badiiy uyg'unligi tuyg'ularning o'zaro ichki jarangi, rezonansi bilan belgilanadi.

Lirik "men"i orqali ifodalangan ruhiy ziddiyat va o'zlikni anglash tematik yondashuv ham muhim sanaladi. She'ning mavzusi muhabbatning ruhiy iztirobdagi shakli, ammo u tashqi muhabbat emas, ichki hissiyati bilan yashovchi insonning o'z-o'zi bilan suhbat. Mavzu "Men" va "Ko'ngil" o'rtasidagi uzilish. Shoir uchun muhabbat ichki kechinma, ruhiy energiya, insoniy o'zlikni izlash yo'lidir. She'rda sevgi "vosita", ammo asosiy maqsad esa ko'ngilning murakkab psixologik holatini ochish. Demak, bu she'rda muhabbat falsafiy, ruhiy va estetik qatlamlarda namoyon bo'ladi.

Ruhiy intensivlik (psixologik zo'riqish darajasi) she'rning butunlay ichki ziddiyatga asoslanganligini ko'satadi, masala, "istash, lekin erishmaslik", "ko'ngil, lekin qismat bilan ajralganlik". Har bir misrada ruhiy intensivlik dinamik shaklda oshib boradi:

1-bayt: Xayol – intilishning boshlanishi.

2-bayt: Qo'l va yo'l – real intilish (harakat bosqichi).

3-bayt: Tush va orzular – ma'naviy yuksalik.

4-bayt: Kuzatuv va taslimiyat – ruhiy cho'qqi, tan olish.

Bu psixologik dinamikani kuchaytiruvchi vosita takroriy "men emas" ifodasidir. U ruhiy to'lqinni boshlab, har safar yana-da chuqurroq darajaga olib kiradi. Natijada o'quvchi ham shoirning ruhiy holatiga tortiladi, bu esa psixologik empatiya effektini yaratadi.

Obrazlardagi yangilik sifatida she'rda obrazlar klassik (ko'ngil, yo'l, qo'l, tush, orzu), lekin ularning ifodalanishi noan'anaviy ruhiy bog'lanishda namoyon bo'ladi.

"Qo'l" – jismoniy emas, ruhiy aloqa timsoli;

"Yo'l" – muhabbat yo'li emas, taqdir yo'lining ramzi;

"Tush" – oddiy uyqu tasviri emas, ong ostining iztirob sahnasi;

"Oyna" – tashqi olam emas, ichki dunyo oynasi sifatida talqin etilgan.

Bu obrazlarning yangiligi shundaki, ular metafizik psixologik mazmun kasb etadi. Shoir shunchaki holatni emas, holatning ongdagi in'ikosini tasvirlaydi. Bu esa zamonaviy lirika ruhiga yaqin intellektual lirik yondashuvdir.

Demak, shunday xulosaviy fikr aytish mumkinki, subyektivlik darajasi "men"ning o'zini inkor etishi orqali o'zligini izlash jarayoni ichki monolog orqali yuzaga chiqadi. Til va tasvir yondashuvi esa ramziy, psixologik personifikatsiyaga asoslangan, takror va ohang bilan ruhiy harakat yaratilishiga xizmat qiladi. Tematik yo'nalish sifatida xayoliy muhabbat, o'zlikni anglash, ko'ngil va aql o'rtasidagi ziddiyatda namoyon bo'ladi. Ruhiy intensivlik natijasida har baytda kuchayib boruvchi ichki iztirob, hissiyotning to'lqinli harakatini, obrazlardagi yangilik esa an'anaviy obrazlarning psixologik, metafizik talqinida (ko'ngil, tush, oyna kabi obrazlar yangi ma'no qatlamida) aks etadi.

Badiiy psixologizmning ifodaviy tizimi she'riyatda lirik subyekt o'zini inkor etgan holatda badiiy psixologizmning eng chuqur shakli intrasubyektiv ziddiyat yuzaga keladi. "Men emas" kabi takroriy konstruksiya orqali shoir psixologik introspeksiya (lirik qahramon o'zini ichki kuzatishi) jarayonini badiiy vositaga aylantiradi. Bu o'rinda shaxsning ruhiy holati tashqi voqealar orqali emas, balki ichki energiya harakati orqali namoyon bo'ladi. Lirik "men"ning o'zini rad etishi aslida refleksiv ong faoliyatining poetik in'ikosi bo'lib, u subyektning ichki dunyosidagi dualizmni, ya'ni "men" va "ko'ngil", "ong" va "his", "borliq" va "xayol" o'rtasidagi qarama-qarshilikni yoritadi.

Obrazlar tizimidagi psixologik transformatsiya haqida so'z ketganda, lirik subyektning o'zini inkor etishi bilan bog'liq badiiy obrazlar real hodisalar emas, balki psixik holatlarning estetik shakllaridir. Masalan, "qo'l", "yo'l", "tush", "oina", "orzular"

kabi obrazlar tashqi predmet sifatida emas, balki ichki sezgi ramzlari sifatida talqin etiladi. “Qo‘llarim qo‘lingga yetmoq istadi” jismoniy harakat emas, balki ruhiy yaqinlikka intilishni bildiradi. “Tushlarim oynayi jahon bo‘ldilar” – bu yerda “oyna” inson ongining ichki in’ikos maydonidir, unda subyekt o‘z “men”ining soyasini ko‘radi. “Orzular sarson bo‘ldilar” – orzular lirik “men”dan ajralgan, mustaqil psixik energiya sifatida yashaydi.

Bu obrazlarning barchasi psixologik personifikatsiya tamoyiliga asoslangan bo‘lib, shoir ularni o‘zining ruhiy bo‘linmalariga aylantiradi. Shu orqali ko‘ngilning polifonik tovushi, ya’ni bir ruh ichida bir nechta “men”ning yashashi poetik darajada ifodalanadi.

She’rning poetik strukturasi belgilovchi asosiy omil takror (anafora) va parallelizmdir. Har bandda takrorlanuvchi “men emas” iborasi semantik o‘q vazifasini bajaradi: u har bir ruhiy holatni kuchliroq yashirin ma’noda takrorlaydi va shu yo‘sinda psixologik intensivlikni bosqichma-bosqich oshiradi.

- 1-baytda xayol darajasidagi begonalik;
- 2-baytda harakat (qo‘l, yo‘l) darajasidagi ehtiros;
- 3-baytda tush va orzular orqali metafizik ajralish;
- 4-baytda esa ruhiy taslim holati kechadi.

Bu struktura lirik kechinmaning psixologik dinamikasini tashkil etadi, hissiyot boshlanishdan, ya’ni cho‘qqidan oxirga tomon – so‘nggi sokinlikka o‘tadi. Shoir ritmik takrorlar orqali ruhiy harakat sintaksisini yaratadi. Shu bilan birga, grammatik parallelizmlar (bir xil tuzilmadagi satrlar) ichki ohangni bir maromda tutib, lirik dramatismni kuchaytiradi.

Lirik subyektning o‘zini inkor etishi o‘zlikni anglash yo‘li sifatida ham kelganini ko‘rish mumkin. Bu jarayonda inkor “inkor” emas, balki ichki o‘zlikni topish strategiyasidir. “Men emas” degan har bir qatlamda lirik qahramon o‘z “men”ining yangi qirrasini topadi. U o‘zini yo‘qotish orqali asl “men”iga yaqinlashadi. Bunday poetik holatni egotsentrik lirikadan metafizik lirikaga o‘tish bosqichi sifatida talqin etish mumkin. Shu tarzda badiiy psixologizm o‘zining intellektual-estetik mohiyatini ochadi: shoir uchun his emas, balki hisning tafakkurdagi in’ikosi muhimligi anlashiladi.

**Xulosa.** Lirik subyektning o‘zini inkor etish hodisasi zamonaviy she’riyatda shaxsiy “men”ning ruhiy murakkablik darajasini ochuvchi muhim badiiy-psixologik fenomen hisoblanadi. U orqali shoir inson ruhining ichki ziddiyatlari, begonashuv holati va o‘zlikni anglash jarayonini poetik shaklda ifodalaydi. Ushbu tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, lirik subyektning o‘zini inkor etishi oddiy inkor emas, balki refleksiv o‘zlikni izlash mexanizmidir. “Men emas” degan poetik formula orqali shoir ichki dialogni yaratadi va o‘z ruhiy “men”ini tahlil subyektini sifatida kuzatadi.

Ikkinchidan, bu hodisa badiiy psixologizmning eng faol ifoda shakli bo‘lib, unda kechinma, sezgi va tafakkur uyg‘unlashadi. Lirik subyektning ruhiy holati tashqi voqealardan mustaqil ravishda ichki nutq va hissiy to‘lqinlar orqali ochiladi.

Uchinchidan, asarda yaratilgan obrazlar “qo‘l”, “yo‘l”, “tush”, “oyna”, “orzular” psixologik ramzlarga aylangan bo‘lib, ular subyekt ongidagi bo‘linmalarni ifodalaydi. Bu obrazlar orqali “men” o‘zining turli ruhiy holatlarida namoyon bo‘ladi, ya’ni obrazlar ongning ko‘zgisiga aylanadi.

To‘rtinchidan, she‘rning poetik strukturasi takror (anafora), parallelizm va ritmik ifodaga asoslanadi. Bu shakliy vositalar ruhiy holatni kuchaytiradi va hissiyotning o‘shish dinamikasini ifodalaydi. Natijada asar ichki drammatizmga ega bo‘ladi.

Beshinchidan, lirik “men”ning o‘zini inkor etishi orqali shoir metafizik lirikaga o‘tadi, ya’ni u hisni emas, balki hisning tafakkurdagi in‘ikosini ifodalaydi. Bu hol intellektual lirik tafakkurning belgisidir, unda inson o‘zni yo‘qotish orqali o‘zligini topadi.

Umuman olganda, “men emas” tipidagi poetik ifodasi o‘zida badiiy psixologizm, falsafiy tafakkur va ruhiy introspeksiyaning birlashtiradi. Shoir uchun “men”ning inkori san‘at orqali o‘zini anglash, o‘zligini ruhiy tahlil qilish shaklidir. Shu bois bu hodisa zamonaviy she‘riyatda insonning ichki dunyosini talqin etishning yangi, chuqur qatlamini tashkil etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fazliddin B. “Yoshlik” jurnali, 2015. <https://yoshlikjurnali.uz/nazm/behzod-fazliddin-yurgan-yollarimda-orzular-kulsa/?imlo=k>.
2. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – С. 212-215.
3. Философский энциклопедический словарь (2010). Статьи на букву “И” (часть 2, “Имп”-“Инт”) Источник: <https://philosophy.niv.ru/doc/dictionary/philosophy/fc/slovar>.
4. Лапланш Ж., Понталис Б. (Словарь по психоанализу / Под ред. - М.: Академический проект, 1996. - с. 367-369).
5. Словарь основных психологических понятий. <https://www.s>.
6. Словарь по психоанализу / Под ред. Ж. Лапланш, Ж.-Б. Понталис. - М.: Академический проект, 1996. - с. 367–369.
7. Ted H. What Is Conflict In Poetry. 2023. <https://www.poetrypoets.com/what-is-conflict>.
8. Tymofieva M.P. Basic conceptions of intrapersonal conflict. Theoretical and methodological research. Basic conceptions of intrapersonal conflict. theoretical and methodological research. <https://st-hum.ru/content/tymofieva-mp-basic-conceptions-intrapersonal-conflict-theoretical-and-methodological>.
9. Выготский, Л. С. (1982). Собрание сочинений. Том 3. Проблемы развития психики. - Москва: Педагогика, с. 144-146.
10. Ushakov D.N. “Rus tilining izohli lug‘ati”. 2012. <https://slovar.cc/rus/ushakov.html>.
11. [https://ozlib.com/880039/literatura/metapoetika\\_innovatsionnaya\\_paradigma\\_filologii?utm\\_source](https://ozlib.com/880039/literatura/metapoetika_innovatsionnaya_paradigma_filologii?utm_source).